# SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Boyqobilova Nilufar Uzaqovna**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim riyasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinergetik yondashuv asosida talabalarda innovatsiyalar va metodlar orqali liderlikni rivojlatirish metodikasini takomillashtirish, , bu metodika ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi va talabalarni kelajakda rahbar sifatida tayyorlashi hamda talabalarning kichik va katta jamoalar bilan ishlay olish qobilyatini shakllantirishi haqida so'z yuritiladi.
**Kalit so'zlar:** lider, metod, yuritish, usul, bog'lash, yondashuv, motivatsiya, individual, tayyorlash, guruh, layoqat, qobiliyat, adabtiv, kreativ, rivojlantirish, takomillashtirish, sinergetik.

**Аннотация:** В данной статье на основе синергетического подхода рассматривается совершенствование методики развития лидерства у студентов посредством инноваций и методов, данная методика повышает эффективность образовательного процесса и готовит студентов как лидеров в будущем, а также формирование умение учащихся работать в малых и больших командах.

**Ключевые слова:** лидер, метод, управление, метод, связь, подход, мотивация, личность, обучение, группа, способность, способности, адаптивный, творческий, развитие, совершенствование, синергетический.

**Abstract:**This article discusses the improvement of the methodology for developing leadership in students through innovations and methods based on a synergistic approach, which increases the effectiveness of the educational process and prepares students as future leaders, as well as the formation of students' ability to work with small and large teams.

**Key words:** leader, method, leadership, method, connection, approach, motivation, individual, training, group, competence, ability, adaptive, creative, development, improvement, synergistic.

Yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish, ularni jamiyatda samarali faoliyat yuritishga tayyorlash, zamonaviy ta'limning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Sinergetik yondashuv, o'z navbatida, bu jarayyoni murakkab tizimlar va ulardagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda yondashish imkonini beradi. **Sinergetik so'zi yunoncha synergeia ( hamkorlik, birgalikda harakat qilish)** so'zidan kellib chiqqan bo'lib, turli qisimlarning birgalikdagi ta'siridan yaxlit tizimning tashkil topishi va rivojlanishini ifodalaydi. Sinergetik yondashuv - bu tizimlar va ularning o'zaro ta'sirini o'rganish, tizimlarning dinamikasini tushunish qaratilgan ilmiy metodologiya hisoblanadi. Bu yondashuv, asosan, murakkab tizimlarni va ularning o'zgaruvchanligini aniqlashga yordam beradi. Tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zgarishlar sinergetik jarayonlar deb ataladi. Sinergetik yondashuv, shuningdek, jamiyat, pedagogika va pisixologiya sohalarida ham keng qo'llaniladi. Ta'lim tizimida bu yondashuv, o'quvchilar va talabalarning o'zaro bog'liqligini, ularning motivatsiyasi va bilim olish jarayonidagi o'zgarishlarni tushunishga va tahlil qilishga yordam beradi.

Amerikalik olim, **Peter Senge** o'zining "The Fifth Discipline" (1990) nomli asarida, tizimli fikrlashni rivojlantirish va o'qitish tizimlardagi o'zgarishlarni sinergetik yondashuv orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan. Senge tizimli fikrlash va o'qituvchlikning liderlik salohiyatini oshirishda o'zaro bog'liqlik va tizimlar orasidagi o'zgaruvchan dinamikaning muhimligini ko'rsatgan. U shuningdek, o'quv jarayonining murakkab tizimlari sifatida qaralishini va bu tizimlarda liderlikni rivojlantirishda innovatsion va sinergetik yondashuvlarning foydasini ta'kidlagan. Senge'ning fikriga ko'ra, liderlik faqat individual muvaffaqiyatlarga erishish bilan cheklanmaydi, balki jamoaviy fikrlash va o'zaro hukmronlikni rivojlantirish orqali jamoa muvaffaqiyatiga olib keladi. Bu jarayonda sinergetik yondashuv talabalarga bog'liq o'zaro tizimlar sifatida o'rganishga, jamoaviy va individual muvaffaqiyatni birlashtirishga imkon yaratadi.

Liderlik, insonlarning jamiyatdagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni maqsadlarga erishishga rag'batlantirish va boshqarish qobilyatlaridir. Liderlik nafaqat boshqaruvchilardir, baliki motivatorlar, mas'ulyatli va ishonchli shaxslar bo'lishlari lozim. Ularning asosiy vazifasi, guruh yoki jamoani umumiy maqsadga yo'naltirish va jamoaning salohiyatini to'liq ishga solishdan iboratdir. Talabalarning liderlik qobilyatlarini, rivojlantirish, ularga nafaqat kelajakdagi ish foliyatlarida muvaffaqiyatlar keltiradi, balki jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga ham yordam beradi. Bugungi kunda talabalarni liderlikka tayyorlash – ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Sinergetik yondashuv talabalarni liderlikka tayyorlashda bir nechta asosiy tushunchalarni ta'kidlaydi.

**O'zaro bog'liqlik va jamoa ishlari-**liderlik o'z -o'zidan rivojlanadigan faqat individual jarayon emas, balki jamoa bilan o'zaro ta'sirlar natijasida shakllanadi. Talabalar bir biri bilan o'zaro hamkorlikda ishlashini o'rganishlari kerak. Bu yondashuv, jamoada liderlikni tarbiyalashda sinergiya va o'zaro ishonch rol o'ynaydi.[1]

**O'zgaruvchan va noaniq sharoitlarga moslashuvchanlik-s**inergetik yondashuv talabalarni o'zgaruvchan dunyoda adabtiv bo'lishini, har xil vaziyatlarga moslashishini o'rganishga yordam beradi. Liderlik qobilyatlarini rivojlantirishda, talabalar tizimlar va muhitni to'g'ri tushunib samarali qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. O'zgarishlarga erishish sinergetik o'zgarishlarni boshqarish, yangi jarayonlarni va tashabbuslarni amalga oshirishni o'rgatadi. Ular qanday qilib ijtimoiy tizimlar va jamoalarni o'zgartirishga qodir bo'lishlarini tushunib yetadilar.

Sinergetik yondashuv asosida talabalarda liderlikni rivojlantirishda kutilgan natijalar quydagilarni o'z ichiga oladi.

[1]Купайсинович, Ҳомидов Ҳусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 561.

**Yuksalgan jamoaviy ishlash va hamkorlik-** talabalar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik kuchayadi, bu esa jamoaviy muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

**Adabtivlik va kreativlikni oshishi-** talabalar o'zgaruvchan sharoitlarga moshlashishga, yangi g'oyalar yaratishga va ijodiy yechimlarni topishga o'rganadilar.

**Tizimli fikrlash va qarorlar qabul qilish qobilyati-** talabalar tizimli va strategik fikrlashni o'rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi liderlik faoliyatlariga foydali bo'ladi.

Sinergetik yondashuv asosida talabalarni liderlikni rivojantirish metodikasini takomillashtirish, bugungi kun talablariga mos yangi pedagogik yondashuvni ishlab chiqishning muhim qadamlaridan biridir. Zamonaviy ta'lim tizmi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki talabalarning ijtimoiy psixologik va rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga ham qaratilgan bo'lishi zarur. Sinergetik yondashuv bu jarayonda talabalarning energetik potensialini to'g'ri boshqarish, ijtimoiy muvozanatni saqlash va guruhda samarali rahbarlikni amalga oshirishda katta yordam beradi.

**Birinchidan,** sinergetik yondashuv talabalarni nafaqat o'zining shaxsiy salohiyatini anglashga, balki jamoaviy ishlashda o'zgaruvchan va murakkab sharoitlarga moslashishga ham o'rgatadi. Talabalar energiya almashinuvi va tizimlararo aloqalarni o'rganish orqali liderlikni jamoaviy va dinamik jarayon sifatida anglab, o'zining rahbarlik qobilyatlarini har tomonlama rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

**Ikkinchidan,** sinergetik yondashuv orqali talabalar o'zlarining rahbarlik sifatlarini faqat individual faoliyatda emas, balki jamoaviy hamkorlikda ham namoyon qilishadi. Jamoa ichidagi muvozanatni saqlash, guruhni birlashtirish va motivatsiya berish kabi qobiliyatlar ular uchun muhim tajriba va amaliy ko'nikmalarga aylanadi. Bu holat,

ayniqsa, hozirgi tezkor va raqobatbardosh dunyoda talabalar uchun samarali rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirishda juda muhimdir.[2]

**Uchinchidan,** sinergetik yondashuvning afzalliklaridan biri bu talabalarga energiya resurslarini samarali boshqarish va jamoaviy faoliyatda barqarorlikni saqlashni o’rgatishdir. Talabalar, o’zaro hamkorlikda ishlash orqali o’zlarining shaxsiy va ijtimoiy resurslarini yanada samarali ravishda taqsimlashni o’rganadilar. Ularning rahbarlik ko’nikmalari, ayniqsa, guruhlararo aloqalar va boshqaruv tizimlarida yuksaladi, bu esa nafaqat akademik, balki kasbiy sohada ham muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

**To’rtinchidan,** sinergetik yondashuv talabalarga nafaqat jamoada rahbarlik qilishni, balki o’zlarini shaxsiy jihatdan ham rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu yondashuv yardamida talabalar o’z salohiyatini to'g‘ri baholash, muvozanatni saqlash, yangi imkoniyatlar yaratish va o’z-o’zini rag’batlantirishni o’rganadilar. O’zlarining ichki energiyasini boshqarish orqali ular eng murakkab vaziyatlarda ham muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sinergetik yondashuv asosida talabalarni liderlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish, nafaqat ularning rahbarlik ko’nikmalarini, balki umumiy ijtimoiy va shaxsiy salohiyatlarini rivojlantirishga ham katta hissa qo’shadi. Bu metodika yordamida talabalar o’zlarining ichki kuchini, energiyasini va resurslarini samarali boshqarish orqali, kelajakda muvaffaqiyatli lider sifatida o’zlarini tanitishi mumkin. Sinergetik yondashuvni ta’lim tizimiga qo’llash, talabalarga innovatsion fikrlash, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va kelajakdagi murakkab jamiyat sharoitlariga moslashishiga imkon yaratadi. Bu o’zgaruvchan va global dunyoda liderlikni rivojlantirishda muhim omil bo’lib, har bir talaba uchun o’zgarishlarni boshqarish, guruhni muvaffaqiyatga erishtirish va shaxsiy rivojlanishning

[2]Ne’matov, Oybek. "TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI." *" Science Shine" International scientific journal* 3.3 (2023)

[3]Rayimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "XX ASR O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MORFEMIKAGA OID QARASHLAR." RESEARCH AND EDUCATION 2.10 (2023): 276-280

to’g’ri yo’lini tanlashga imkon beradi. Shu bilan birga, bu metodika ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarni kelajakda rahbar sifatida tayyorlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Homidov,H.K."TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO ‘LLARI."Экономика и социум 5-1 (108) (2023): 83-87.
2. Amirova, Gulnoza Rashitovna. "BARKAMOL SHAXS TARBIYASI." GOLDEN BRAIN 1.33 (2023): 118-120.
3. Ne’matov, Oybek. "TA’LIMDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI." *" Science Shine" International scientific journal* 3.3 (2023).
4. Boyqobilova, Nilufar. "SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI BOSHQARUV JARAYONIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG ‘ICH TA’LIM)." GOLDEN BRAIN 1.33 (2023): 85-88.
5. Rayimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "XX ASR O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGI: MORFEMIKAGA OID QARASHLAR." RESEARCH AND EDUCATION 2.10 (2023): 276-280.
6. Ochilova Fayyoza Mansurovna. “Hazrat Navoiyning ona tilimizning bugungi kamolotiga qo’shgan katta hissasi haqida” (BOSHLANG ‘ICH TA’LIM)." GOLDEN BRAIN 1.33 (2023): 37-41.
7. Yakubova Guzal Lukhmanovna. WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL "LINESTICS THINKINC BASED ON AN INTEGRATIVE-CRAATIVE APPROACH".
8. Kamalova, Dilobar Tairovna. "PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONGUENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI." RESEARCH AND EDUCATION 2.10 (2023): 272-275.
9. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY

RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.

10. Erkin o'g'li, Nematov Oybek. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 1.3 (2024): 147-150.

11. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.

12. Raimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "TIL-ALOQA VOSITASI." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 128-130.

13. Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." Proceedings of The ICECRS 4 (2019).

14. Ochilova, Fayyoza. "TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).

15. Boyqobilova, Nilufar Uzaqovna. "THE THEORY OF THE SELF-ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS'EDUCATIONAL ACTIVITIES IS BASED ON A SYNERGISTIC APPROACH." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 101-110.

16. Kamalova, D. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CONGRUENCE QUALITIES IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION OF STUDENTS." Science and innovation 3.B2 (2024): 105-108.

17. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.12 (2020): 132-136.

18. Болтаева, Зулфия Зарифовна, and Хусниддин Купайсинович Хомидов. "ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ."VIII Лазаревские

чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.

19.Maratovna, Muhammamadiyeva Manzura, and Amirova Gulnoza Rashitovna. "Boshlang ‘ich sinf o‘quvchilarini o ‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning metodikasi." *Ijodkor o'qituvchi* 3.29 (2023): 397-402.

20.СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ ПРОГРАММЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ «TIMSS»A.G.RashitovnaОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 4 (2181-3187), 152-155

21.Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "COOPERATION BETWEEN STATE AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE ACTIVITIES." Thematics Journal of Social Sciences 7.3 (2021).

22.Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).

23.Xalqaro Tadqiqotlarda Boshlang‘Ich Sinf O‘Quvchilarining O‘Qish Savodxonligini Baholash

A.G. Rashitovna INTERNATIONAL JOURNAL OF FORMAL EDUCATION 7 (ISSN: 2720-6874), 15-23

24.Solieva, Zarina, and Gulnoza Amirova. "The role of games for teaching children." *Bridge to science: research works* (2019): 88.

25.Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).

26.Amirova, Gulnoza. "Approaches of Teaching to Read." *JournalNX*: 167-171.

27.Купайсинович, Ҳомидов Ҳусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 561.

28.Amirova, G. "Why Is Reading Important?." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).

29.Amirova, Gulnoza Rashitovna. "BARKAMOL SHAXS TARBIYASI." *GOLDEN BRAIN* 1.33 (2023): 118-120.

30.Manzura, Muhammadieva, and Amirova Gulnoza. "The role of alisher navoi's legacy in the education and upbringing of primary school students today." *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities* 12.4 (2022): 389-391.